

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA CHET TILLARINI O'QITISHDA  
O'QITUVCHINING ROLI**

**Yo'ldosheva Shoira Yo'lchiboy qizi**

*Jizzax Davlat pedagogika universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xususan boshlang'ich sinf o'quvchilarining chet tillarini yuqori darajada o'zlashtirishlarida o'qituvchilarning roli va ahamiyati qay darajada muhim ekanligi, ularning zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanishi va o'quvchilarni dars mashg'ulotlariga jalb qilishda samarali metodika larda foydalanishi kabi faoliyatlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, metodika, boshlang'ich sinf, ko'rgazmali qurol, o'quvchi o'qituvchi, ta'lim to'g'risidagi qaror

Kundan kunga tobora rivojlanib, ravnaq topib borayotgan zamonda yashar ekanmiz davr talabiga mos ravishda ta'lim olish va uni yosh avlodga yetkazib berish, yetarli darajada bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish va ularni amaliyotda to'g'ri qo'llay bolish juda zarur. Shuningdek, mamlakat taraqqiyotiga o'z yutuqlarimiz bilan hissa qo'shmog'imiz lozim. Buning uchun bizdan harakat va saviyali bilimlar o'zlashtirishga bo'lgan kuchli ishtiyoq talab etiladi. Bilim olishni qanchalik erta boshlansa, shuncha mustahkam bo'ladi. Bu jumlaning o'zida ifoda etuvchi xalqimiz orasida bir naql bor "Yoshlikda olingan bilim - toshga o'yilgan naqsh kabidir". Bu bilan xalqimiz shuni aytmoqchiki, inson bolalikda olgan, o'rgangan bilimni toki ulg'ayganda ham yodida qoladi. Chet tillarini o'rganish hozirgi zamon, kun talabiga aylanishga ulgurdi. Hozirgi kunda, har tomonlama jadal rivojlanib borayotgan yurtimizda ta'lim sohasiga katta e'tibor qaratilib, ayni shu tizimda amalga oshirilayotgan islohatlar o'z samarasini bermoqda. Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimovning chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlar to'g'risidagi qarori mavjud:

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BIRINCHI PREZIDENTINING QARORI**

**CHET TILLARNI O'RGANISH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORATADBIRLARI TO'G'RISIDA**

Qayd etib o'tilsinki, mamlakatda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunini hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillarga o'qitishning kompleks tizimi, ya'ni uyg'un kamol topgan, o'qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikaning jahon hamjamiyatiga yanada integratsiyalashuviga yo'naltirilgan tizim yaratildi.

Shuningdek, chet tillarni o'rganishni tashkil qilishning amaldagi tizimini tahlil etish shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va darsliklar zamon talablariga, xususan, ilg'or axborot va media-texnologiyalardan foydalanish borasidagi talabga to'liq javob bermayapti. Ta'lim asosan an'anaviy uslublarda olib borilmoqda.

Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarni uzluksiz o'rganishni tashkil qilish, shuningdek, o'qituvchilar malakasini oshirish hamda zamonaviy o'quv-uslubiy materiallar bilan ta'minlash yanada takomillashtirilishini taqozo etadi.

Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan, o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o'qitish, chet tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish maqsadida:

respublikaning barcha hududida chet tillarni, asosan, ingliz tilini o'rganish umumta'lim maktablarining birinchi sinflaridan o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida, ikkinchi sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'zlashtirishdan bosqichma-bosqich boshlanadi;

va bundan tashqari yana ko'plab chora-tadbirlarni amalga oshirish to'g'risida muhim topshiriqlar va qarorlar keltirilgan. Qarorda ta'kidlab o'tilganidek ta'lim sohasiga katta ahamiyat beriladi. Bundan kelib chiqib shuni aytishimiz lozimki, o'quvchilarning, umuman olganda til o'rganuvchi barcha shaxslarning o'rganish darajasi va yoki o'rganish davomidagi qiziqishning asosiy qismi o'qituvchiga bog'liq. "Nima uchun o'qituvchi o'quvchining o'rganish jarayonida katta rol o'ynaydi?" – degan savol tug'iladi, bu tabiiy hol. Buning sababi shuki, hozirgi zamonaviy davrda ma'lum bir narsani o'rganish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda, internetdan istalgan ma'lumotni topa olish mumkin va Bepul darsliklardan foydalanib deyarli barcha bilimlarni o'zlashtirishga mumkin, biroq boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ustoz yoki muallimsiz boshlang'ich ta'limni xususan, chet tillarni o'zlashtirishda bir qancha qiyinchiliklar yuzaga keladi. Shu sababi mamlakatimizda bog'cha va maktab davridan boshlab o'qituvchining ijobiy ma'nodagi bosimi natijasida bolalar bilim olishadi, natijada aholi o'rtasida ingliz tilida aytganda "self study" ya'ni "o'zi o'qish" ko'nikmasini hosil qilish va uni amalga tatbiq etish biroz mushkul. Bundan kelib chiqyaptiki, mamlakatimizda til o'rganish jarayoni asosan o'qituvchiga ya'ni uning bilim va tajribasiga, shu bilimlarni o'quvchiga qay darajada oson, qiziqarli va sifatli o'rgatishiga, shuningdek til o'rganishga bo'lgan qiziqishlarni yanada rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalardan va metodikadan foydalanishga bog'liq. Til o'rganuvchilarning asosiy qismini bog'cha bolalari yoki maktab o'quvchilari tashkil etishini hisobga olgan holda, ya'ni barchamizga ma'lum bog'cha yoshidagi bolalar o'yinqaroq bo'ladi va maktab o'quvchilari ham bundan mustasno emas va yoki o'smir yoshidagi o'quvchilarni ham dars jarayonlariga jalb qilish uchun o'qituvchidan katta mahorat talab etiladi. Masalan, ularni chet tillariga bo'lgan qiziqishini oshirish maqsadida o'qituvchi ularning qiziqishidan kelib chiqib turli xil qiziqarli o'yinlar orqali o'rgatadi, ayni shu tilda turli sahna ko'rinishlar tayyorlaydi. Bolalar esa ertak yoki multfilm qahramonlari rolini ijro etadi, o'sha tilda gapirishga harakat qiladi va



ular o'zlarini haqiqatdan ertak yoki multfilm qahramonlari deb hisoblaydi. Natijada ularda katta ehtimol bilan tilga bo'lgan qiziqish ortib boradi. O'qituvchi darslarni qiziqarli o'tishi, ularni tilga qiziqtirishi uchun undan nafaqat zamonaviy metodikalarni bilishi, shuningdek, rivojlangan zamonda zamonaviy texnologiyalar ham kerak bo'ladi. Chet tili fani to'rt aspectga (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish) bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berilmoqda. Ta'lim texnologiyalari, bu ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy innavatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirish nazarda tutiladi. Xususan, chet tilini o'zlashtirishda bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjud. Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy texnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan asosan, boshlang'ich sinflar uchun ko'rgazmali qurollardan foydalanish chet tili o'rganishning har bir aspect (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish)ida qo'l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD diskarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan:

- zamonaviy texnologiyalardan foydalanganda o'quvchi chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko'rishi ham eshitishi mumkin;

- chet tilidagi xususan, radio eshittirishlar va televideniya dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin;

- ancha an'anaviy usullardan biri magnitafon va cassetalardan foydalanish;

- CD pleyerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning chet tilini o'rganishlari jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi. Ma'lumki, darsning turli xil o'yinlar asosida o'tilishi o'quvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatni jamlash, bilim va ko'nikmalarini oshirish ta'minlaydi.

Xulosa shuki, har bir buyuk insonni yoki olim ajdodlarimizning ham o'z ustozlar bo'lgan va ularning nomlari hozirgacha birgalikda yodga olinadi. Ana shuning uchun ham ular ko'plab marralarga erishgani manbalarda qayd etilgan. Hozirgi zamonda ham ko'plab mashhur shaxslarning va yosh bo'lishiga qaramasdan ko'plab yutuqlarga erishgan yoshlarning suhbat jarayonlarida qaysi kasb yoki yo'nalishni tanlashdan qat'iy nazar har bir shaxsning ustoz bo'lishi kerak deb maslahat berishadi. Sabab juda ham oddiy o'qituvchi o'quvchini yo'naltiradi, o'rgatadi, xatolarini ko'rsatib tushuntiradi va maslahatlar beradi. Demakki, agar chet tilini o'rganish jarayonida ham o'qituvchi bo'lmasa, o'quvchilar o'zlarining qachon qayerda xato qilganlarini topishi, nima uchun u xatoni qilgani, u xatoni qanday qilib takrorlamasligini bilishi

mushkullashadi. Bundan tashqari, yuqorida ta'kidlanganidek o'quvchi o'rganadigan narsalarni, yodlayotgan xorijiy so'zlarini, bajarayotgan mashqlarini ko'pincha o'qituvchi tekshirgani uchun ko'proq mas'uliyat bilan yondashib o'rganadi. Shuning uchun o'qituvchi nafaqat chet tillarini o'rganishda, shuningdek har bir yo'nalishda, har bir ta'lim javhasida judayam katta rol o'ynaydi.

**REFERENCES:**

- 1.N. Q. Xatamova, M.N.Mirzayeva. "INGLIZ TILI DARSLARIDA QO'LLANILADIGAN INTERFAOL USULLAR" (uslubiy qo'llanma), Navoiy, 2006, 40 bet;
2. M. Xoldorova, N. Fayziyeva, F. Rixsittilayeva. "CHET TILINI O'QITISHDA YORDAMCHI VOSITALARDAN FOYDALANISH". Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005 O'.Hoshimov, I. Yoqubov. "INGLIZ TILI O'QITISH METODIKASI" (o'quv qo'llanma) Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2003;
- 3.Kobilova N.R., Bagapova G. V. "Nofilologik oliy o'quv yurtlarida xorijiy til ta'limni takomillashtirishda didaktik materiallardan foydalanish" Fan va jamiyat. Nukus. 2019 (№4) 185-189 betlar
4. <https://lex.uz>;
5. [www.samdchti.uz](http://www.samdchti.uz);
6. [algoritm-centr.ru](http://algoritm-centr.ru).